

Mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) tashkilotlarda ish o'rinlari soni, tashkil etilishi va qisqartirilishi, ishchi kuchi harakati, xodimlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarining statistikasini yuritish imkonini beruvchi ko'rsatkichlarni shakllantirish mexanizmini belgilaydi.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning standart va tavsiyalari hamda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanildi.

Uslubiy nizom BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida tayyorlangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ish o'rni (ish) — bu mehnatga haq to'lash evaziga yoki daromad uchun amalga oshiriladigan muntazam faoliyat — insonning hunari, mashg'uloti yoki kasbi, shu jumladan, egallab turgan lavozimi, pozitsiyasi;

ish joyi — bu shaxsning o'z ishini bajarish jarayonida ma'lum bir vaqt davomida bo'ladigan joyi; yoki ish bilan band shaxs odatda o'zining asosiy mehnat funksiyalarini bajarishiga moslashtirilgan ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari mavjud bo'lgan joy bo'lib, buning asosida uning boshqa iqtisodiy xususiyatlari, masalan, kasb turi, sohasi va ishdagi holati aniqlanadi (OECD Glossary of Statistical Terms);

yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi – korxona yoki tashkilotlarda yoki ularning alohida bo‘linmalarida ishlovchi mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan barcha xodimlar;

yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati – turli sabablarga ko‘ra ishga qabul qilish va ishdan ketish tufayli xodimlar sonining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Hisobot davri uchun xodimlarning harakati balans shaklida taqdim etilishi mumkin, ya’ni hisobot davrining boshidagi xodimlar soniga hisobot davrida qabul qilinganlar sonini qo‘shish va hisobot davrida ishdan ketganlar sonini ayirish natijasi hisobot davri oxiridagi xodimlar soniga teng bo‘ladi;

xodimlarning o‘rtacha soni – yil boshidan hisobot oyigacha bo‘lgan davr mobaynida o‘tgan barcha oylar uchun xodimlarning o‘rtacha oylik sonini jamlash va yig‘indini yil boshidan jami oylar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi;

malaka — xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning, uning bilimi, mahorati va ko‘nikmalarining tegishli kasb va mutaxassislik bo‘yicha aniq mehnat funksiyalarini sifatli bajarishga tayyorgarlik darajasi;

xodimlarni kasbga tayyorlash — xodimlarda nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga, shuningdek, muayyan sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirishga va (yoki) muayyan kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha ishlarni bajarishga imkon beruvchi ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish;

xodimlarni qayta tayyorlash — xodimlarni texnologiyalarga yoki mehnat jarayoniga nisbatan talablar o‘zgarib borayotganligi sababli yangi kasbiy bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarni egallash maqsadida yoki yangi kasbni egallash uchun o‘qitish.

2-bob. Tashkilotlardagi ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumotlarni shakllantirish tartibi

3. Statistika nuqtayi nazaridan ish tushunchasi “bir shaxs tomonidan, shu jumladan, ish beruvchi uchun yoki yakka tartibdagi mehnat faoliyati doirasida bajariladigan yoki bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va majburiyatlar majmui” deb ta’riflangan (MXST-08, 11-bet).

Tashkilotlardagi ish o‘rinlari soni to‘g‘risida statistika kuzatuvlarini o‘tkazishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi korxona va tashkilotlaridagi (xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fermer xo‘jaliklari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan tashqari) mavjud, yangi tashkil etilgan, qisqartirilgan va bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ishonchli rasmiy statistik ma’lumotlarni foydalanuvchilarga o‘z vaqtida taqdim etishdan iborat.

4. Tashkilotlardagi ish o'rinlari soni to'g'risidagi ma'lumotlar yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fermer xo'jaliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan tashqari) tomonidan taqdim etilgan 4 mehnat shakli (choraklik) mehnat hisoboti hamda 1 kb shakli (yillik) mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti asosida shakllantiriladi.

5. Korxona va tashkilotlardagi (xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fermer xo'jaliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan tashqari) mavjud, yangi tashkil etilgan, qisqartirilgan va bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar kesimida tayyorlanadi.

3-bob. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi ko'rsatkichlarni shakllantirish tartibi

6. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlari korxona va tashkilotlardagi ishga qabul qilingan va ishdan ketgan xodimlarni o'z ichiga oladi.

7. Qabul qilingan xodimlar hisobot davrida ushbu korxona yoki tashkilotga buyruq bilan ishga qabul qilinganlar bo'yicha aniqlanadi.

8. Ishga qabul qilingan xodimlar soni quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

davlat tashkilotlari tomonidan maxsus shartnomalar asosida ishga yollangan xodimlar (harbiy xizmatchilar va ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslar);

tashqi o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar;

fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlar.

9. Ishdan bo'shagan xodimlar ushbu tashkilotda ishdan bo'shashining sabablaridan (xodimning yoki ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi, shtatlar qisqarishi, tomonlarning kelishuvi, harbiy xizmatga chaqiruv yoki qabul qilinishi, buyruq bilan rasmiylashtirilgan, xodimni o'z roziligi bilan boshqa tashkilotga o'tkazilishi yoki tanlangan lavozimga o'tishi, uni tark etishi yoki o'tkazilishi, shuningdek, o'lim bilan bog'liq holda ishdan bo'shashi) qat'i nazar hisobga olinadi.

10. O'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shagan xodimlar soniga korxona yoki tashkilotdan xodimning o'z tashabbusi bilan, shuningdek, quyidagi holatlar sababli chiqib ketgan xodimlar kiritiladi:

boshqa hududga yoki chet elga ko'chib o'tish;

kasallik yoki nogironlik, sog'ligi sababli ishlashni davom ettira olmaslik;

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim muassasasiga qabul qilinishi;
pensiya yoshiga yetganligi sababli;
kasal oila a'zolari yoki nogironlarga g'amxo'rlik qilish zarurati sababli;
tomonlarning kelishuviga muvofiq.

11. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi mavjud statistika ma'lumotlari asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

- 1) ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti;
- 2) ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyenti.

12. Nisbiy ko'rsatkichlar ishchi kuchi harakatining intensivlik darajasini tavsiflaydi. Ishchi kuchi harakati to'g'risidagi mavjud statistika ma'lumotlari asosida quyidagi nisbiy ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1) ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti (k_H) ko'rsatkichi – ma'lum bir davrdagi ishga qabul qilingan xodimlar sonini o'sha davrdagi xodimlarning o'rtacha soniga nisbati sifatida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$k_H = \frac{H}{\bar{L}} * 100\%;$$

bunda,

k_H – ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti;

H – ishga qabul qilingan xodimlar soni;

$\bar{L}$ – hisobot davrdagi xodimlarning o'rtacha soni.

2) ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyenti (k_D) ko'rsatkichi – ma'lum bir davrdagi ishdan bo'shagan xodimlar sonini o'sha davrdagi xodimlarning o'rtacha soniga nisbati sifatida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$k_D = \frac{D}{\bar{L}} * 100\%.$$

bunda,

k_D – ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyenti;

D – ishdan bo'shagan xodimlar soni.

13. Ma'lumotlar yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari tomonidan elektron shaklda taqdim etilgan 1 mehnat shakli "Mehnat hisoboti", 1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti", 1 nnt shakli "Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot", 1 kom (kvartira) shakli "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida hisobot" shakllari

asosida yillik davriylikda yig'iladi va iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar bo'yicha ishlab chiqiladi.

14. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish ishlari Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, statistika to'plamlarini tayyorlash va ma'lumotlarni nashr etish tasdiqlangan grafik asosida amalga oshiriladi.

15. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakatini kuzatish iqtisodiy faoliyat turlari va respublika hududlari bo'yicha xodimlarni ishga qabul qilinishi va ishdan bo'shishi, nisbiy koeffitsiyentlar orqali ishchi kuchi harakatining intensivligi va xodimlarga bo'lgan talab haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

16. Tashkilotlarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlari davriy nashrlar orqali e'lon qilinadi.

4-bob. Tashkilotlarda xodimlarning ma'lumoti darajasi, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish ko'rsatkichlari hisobi

17. Tashkilotlarda xodimlarning ma'lumoti darajasi, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish to'g'risida statistika kuzatuvlarini o'tkazishning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish, stajirovka o'tash, qayta tayyorlash va kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, AKT sohasida kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va malakasini oshirganlar, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishga sarflangan mablag'lar to'g'risidagi ishonchli rasmiy statistik ma'lumotlarni foydalanuvchilarga o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

18. Tashkilotlarda xodimlarning ma'lumoti darajasi, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (kichik korxona va mikrofirmalar, xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan tashqari) tomonidan taqdim etilgan 1 mehnat shakli (yillik) mehnat hisoboti asosida shakllantiriladi.

19. Tashkilotlarda xodimlarning ma'lumoti darajasi, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat turlari, jinsi va hududlar kesimida jamlanadi.

20. Tashkilotlarda xodimlarning ma'lumoti darajasi, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirish to'g'risida statistika kuzatuvlarini o'tkazish asosida quyidagi ko'rsatkichlar xodimlar toifalari bo'yicha shakllantiriladi.

21. Tashkilotlarda malaka oshirgan xodimlarning jami xodimlar soniga nisbatan ulushi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$k_s = \frac{S}{\bar{L}} * 100\%;$$

bu yerda:

k_s – malaka oshirgan xodimlar sonining tashkilotda ishlovchi jami xodimlar sonidagi ulushi;

S – malaka oshirgan xodimlar soni;

$\bar{L}$ – hisobot davrdagi xodimlarning o'rtacha soni.

22. Tashkilotlarda kasb-hunar tayyorgarligidan o'tgan (qayta tayyorlangan) xodimlarning jami xodimlar soniga nisbatan ulushi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$k_o = \frac{O}{\bar{L}} * 100\%;$$

bu yerda:

K_o – kasb-hunar tayyorgarligidan o'tgan (qayta tayyorlangan) xodimlar sonining tashkilotda ishlovchi jami xodimlar sonidagi ulushi;

O – kasb-hunar tayyorgarligidan o'tgan (qayta tayyorlangan) xodimlar soni.

23. Tashkilotlarda AKT sohasida malaka oshirgan yoki kasb-hunar tayyorgarligidan o'tgan (qayta tayyorlangan) xodimlarning jami xodimlar soniga nisbatan ulushi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$k_{ict} = \frac{T_{ict}}{\bar{L}} * 100\%;$$

bu yerda:

K_{ict} – AKT sohasida kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va malakasini oshirgan xodimlar sonining tashkilotda ishlovchi jami xodimlar sonidagi ulushi;

T_{ict} – AKT sohasida kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va malakasini oshirgan xodimlar soni.

3-bob. Yakuniy qoidalar

24. Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini

ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

25. Ushbu Uslubiy nizom tashkilotlarda ish o'rinlari soni, tashkil etilishi va qisqartirilishi, yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati, tashkilotlarda xodimlarni kasb-hunarga qayta tayyorlash va malakasini oshirishning asosiy statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu sohada ma'muriy qarorlar qabul qilishda, tergov va nazoratda, sud muhokamasida, ayrim huquqiy bahs-munozaralarni hal etish va ma'muriy qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi" (2022-yil 29-oktabr).
2. "Aholi bandligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2020- yil 20- oktabr).
3. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2022- yil 8- avgust).
4. "Rasmiy statistika to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2021- yil 11- avgust).
5. "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 15-maydagi 287-son qarori.
6. "Yaratilgan yangi ish o'rinlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 21-dekabrdagi 717-son qarori.
7. Международная стандартная классификация занятий 2008 г. (МСКЗ-08) https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@europe/@ro-geneva/@sro-moscow/documents/publication/wcms_306603.pdf
8. Xodimlar soni, ish haqi va ish vaqtidan foydalanishni statistik kuzatish metodikasining "Ishchilar harakati" bo'limi (Rosstat).